



# **Surxondaryoda davlatimiz bayrogʻining 33 yilligi keng nishonlanmoqda**





Bugun Oʻzbekiston Respublikasi davlat bayrogʻi qabul qilinganligining 33 yilligi munosabati bilan Surxondaryo viloyatining shahar va tumanlarida tantanali marosimlar tashkil etilmoqda.


Bugun erta tongda viloyat markazidagi "Bolajon bogʻi" hududidan Yoshlar markazi binosigacha boʻlgan hududgacha 30 metrlik bayroqni olib yurish marshi boʻlib oʻtdi. Tadbirda davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, harbiylar, yoshlar hamda keng jamoatchilik faollari ishtirok etishdi.



















Tadbirda bayrog‘imizda milliy-tarixiy an‘analarimiz, uzoq o‘tmishga borib taqaladigan boy madaniyatimiz, poklik beg‘uborlik, go‘zallik, yaxshilik, donishmandlik, shon-shuhrat va sadoqat kabi buyuk fazilatlarimiz o‘z ifodasini topgani xususida so‘z yuritildi.
















Yoshlar markazi binosi oldida tashkil etilgan tadbirda Surxondaryo viloyati hokimi Ulug'bek Qosimovning vohamiz ahliga bayrog'imizning 33 yilligi munosabati bilan yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi. Harbiy orkestrlar, vohamizning taniqli san'atkorlari tomonidan Vatan madhini kuylovchi qo'shiqlar hamda ko'rgazmali chiqishlar namoyish etildi.














Shundan so'ng, Termiz shahridagi "San'at saroyi" majmuasining konsertlar zalida bayrog'imizning 33 yilligiga bag'ishlangan tantanali konsert dasturi bo'lib o'tdi.

Joylarda sana munosabati bilan bayram tadbirlari davom etmoqda.